

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

#### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**S.MAHMUDOVA**

<b>“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir” .....</b>	6
---	---

## PEDAGOGIKA

**X.Kadirov, B.Xamdamov**

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati .....	8
---	---

**L.Yo’Idosheva**

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	13
---	----

**M.Alimjanova**

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari .....	17
--	----

**B.Xaydarov**

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
--	----

**G.Absalamova**

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
---	----

**F.Mirzayeva**

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
--	----

## IQTISODIYOT

**T.Xaydarov, B.Karimov**

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi .....	36
--	----

## FALSAFA, SIYOSAT

**N.Hakimov, D.Amridinova**

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---	----

**I.Raximov**

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	48
---	----

**R.Isamutdinov**

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
--	----

**S.Xoliqov**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari .....	57
---	----

## ТАРИХ

**M.Xurramov**

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari .....	61
---	----

**R.Arslonzoda**

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi .....	69
---	----

**I.G‘ulomov, Z.Kasimova**

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish .....	76
---	----

**G.Haydarov**

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi .....	83
--	----

**G.Dadamirzayeva**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati .....	88
---	----

**A.Aduvali**

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
--	----

**N.Komilov**

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
--	----

**M.Darmonova**

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

**L.Sokolova**

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari .....	107
--	-----

**O.Zaripov**

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi .....	113
--	-----

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING  
MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ПОЛНОМОЧИЙ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ ПАЛАТЫ ОЛИЙ  
МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ НАЦИОНАЛЬНОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ**

**SPECIFIC ASPECTS OF THE DUTIES OF THE LEGISLATIVE CHAMBER OF THE  
OLIY MAJLIS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ENSURING NATIONAL SECURITY**

**Sarvar Xoliqov Mingishovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Sarvar Xoliqov Mingishovich**

*– mustaqil izlanuvchi,*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ish faoliyatini pandemiya sharoitiga moslashtirib, axborot texnologiyalari imkoniyatlarini samarali qo'llagan holda qonunchilik hujjalari qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish bilan bog'liq faoliyati xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining faoliyatining axborot-tahliliy jihatidan ta'minlash mexanizmi shakkantirilganligi hamda Qonunchilik hokimiyyati organi faoliyatini yanada ochiqligini ta'minlash, deputatlar korpusi tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan ishlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish, deputatlar va saylovchilar o'tasidagi qayta aloqani yanada rivojlantirish zaruriyati tahlil etilgan.

**Аннотация**

В данной статье отражена деятельность Олий Мажлиса Республики Узбекистан, адаптирующейся к условиям пандемии и эффективно использующего возможности информационных технологий, в связи с принятием законодательных документов и контролем их исполнения. Также формирование механизма обеспечения деятельности Комитета по вопросам обороны и безопасности Законодательной палаты Олий Мажлиса в информационно-аналитическом плане, а также обеспечения деятельности органа Законодательной власти носит более открытый характер, доведение проводимой депутатским корпусом работы до широкой общественности, депутатов и избирателей Необходимость дальнейшего развития обратной связи между

**Abstract**

This article reflects on the activities of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, adapting to the conditions of the pandemic and effectively using the possibilities of information technologies, in connection with the adoption of legislative documents and the control of their execution. Also, the formation of a mechanism to ensure the activity of the Committee on Defense and Security Issues of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis in terms of information and analysis, as well as to ensure the activity of the Legislative Power body is more open, to deliver the work being carried out by the corps of deputies to the general public, deputies and voters. The necessity of further development of feedback between

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, qonunchilik hujjalari, milliy xavfsizlik.

**Ключевые слова:** Олий Мажлис Республики Узбекистан, законодательные документы, национальная безопасность.

**Key words:** Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, legislative documents, national security.

**KIRISH**

Butun dunyoda davom etayotgan pandemiya mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotini mazkur salbiy holatlarga moslashtirgan holda, rejalahtirilgan demokratik islohotlarni davom ettirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlarning normativ-huquqiy asoslarini yaratish muhim ro'l o'yub, parlamentning turli vaziyatlarga tez moslashishini vaziyatning o'zi taqozo etmoqda.

Xususan, mamlakatimizda karantin tartibi joriy qilinishiga qarmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ish faoliyatini pandemiya sharoitiga moslashtirib, axborot texnologiyalari imkoniyatlarini samarali qo'llagan holda qonunchilik hujjalari qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish bilan bog'liq faoliyatinu amalga oshirib kelmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunda – O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oldimizda o'ta dolzarb va murakkab vazifalar turibdi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun avvalo qonun ijodkorligi sohasida ishni butunlay yangicha tashkil etishimiz kerak"[1].

Qayd etish lozimki, parlamentimizning asosiy funktsiyalari mavjud bo'lib, ular vakillik, qonunchilik va nazorat funktsiyalari hisoblanadi. Mazkur funktsiyalarni sifatli va samarali amalga oshirish orqali mamlakatimizda mudofaa va xavfsizlik sohasida munosabatlar tartibga solinib, ijtimoiy osoyishtalikka erishiladi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, Qonunchilik palatasi (quyi palata) hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartyaviylik asosida umumiyligini, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'lli bilan saylanadigan bir yuz ellik nafar deputatdan iborat.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi"[2].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining xavfsizlik bilan bog'liq yo'nalishdagi vazifalariga doir tegishli qonun hujjatlarda biron-bir jumla yoki qoidalar belgilanmagan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining "Xavfsizlik to'g'risida"gi Qonunida Rossiya Federatsiyasi Federal kengashi Davlat Dumasi (quyi palata) xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi federal qonunlar qabul qilishligi[3], Qozog'iston parlamenti davlat xavfsizligi va mudofaasini ta'minlashga doir qonunlar qabul qilish vakolati[4], Ozarbayjon parlamenti (Milliy Majlis) xavfsizlik asoslariga doir qoidalarni o'rnatishi mavjudligi belgilangan[5].

Xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar Qonunchilik palatasida alohida yo'nalishga ega hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2016 yil 29 yanvardagi 368-III-son Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamentiga ko'ra, Qonunchilik palatasida mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tuzilishi shartligi belgilangan.

Ahamiyati jihatni shuki, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi qonunchilik tashabbusi subyektlaridan kelib tushgan mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonunlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tegishli takliflarni Qonunchilik palatosi yuqori tashkiliy shakliga kiritishni amalga oshiruvchi Qonunchilik palatasining asosiy tuzilmasidir.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining asosiy vazifasi sifatida quydagilarni qayd etish mumkin:

- mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonun hujjatlari, davlat dasturlarining ijrosi, mamlakatning ichki hamda tashqi xavfsizligini ta'minlash sohasida, harbiy qurilish va mudofaa sanoati majmuasi, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi ustidan tizimli parlament nazoratini amalga oshirish;

- mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, ularning O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasi hamda milliy manfaatlariga, davlat harbiy va mudofaa qurilishi asoslariga muvofiqligini o'rganish hamda ular bo'yicha xulosalar va takliflar tayyorlashda ishtiroy etish;

- mudofaa va xavfsizlik sohasiga doir mavjud qonunchilik bazasini tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasida harbiy qurilish rejali va istiqbollarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar, yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni, shuningdek harbiy xizmatni o'tash chog'ida halok bo'lgan shaxslarning oila a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilayotgan fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga riosa etilishi ta'minlanishi yuzasidan ta'sirchan qarorlar qabul qilish;

- Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va baynalmilalchi jangchilar turmush sharoitini yanada yaxshilashga oid masalalarni qo'mita majlislarida muhokama qilib borish, halq deputatlari maxalliy Kengashlarida muhokama etilishiga ko'maklashish;

- davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining fuqarolarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashish.

E'tiborga molikki, qo'mita mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, ularning O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasi hamda milliy manfaatlariga, davlat harbiy va mudofaa qurilishi asoslariga muvofiqligini o'rganish hamda ular bo'yicha xulosalar va takliflar tayyorlashda ishtiroy etadi. Shuningdek, mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga doir takliflar tayyorlash va kiritish yuzasidan muntazam tahlillar

## FALSAFA-SIYOSAT

olib boradi, bu boradagi xalqaro tajribani o'rganadi va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining faoliyatini axborot-tahliliy jihatidan ta'minlash mexanizmi quyidagilar orqali shakllantiriladi:

- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Devonining xulosalari;
- Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutining materiallari;
- Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsmanning) hisobotlari;
- Vazirlar Mahkamasi apparatining "harbiy" bo'limi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar materiallari;
- Hisob palatasi va Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar materiallari;
- Qo'mita huzurida tashkil etilgan ekspertlar guruhining taklif va tavsiyalari;
- Kuch ishlatar tuzilmalari huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari;
- "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazining sotsiologik tadqiqotlar natijalari;
- Davlat boshqaruvi organlari huzurida tashkil etilgan jamoat kengashlarining taklif va tavsiyalari;
- Mudofaa va xavfsizlik muammolari bo'yicha mahalliy va xorijiy bosma nashrlar;
- BMTning maxsus ma'ruzachilari, hamda xalqaro va xorijiy tashkilotlarning hisobotlari;
- Mahalliy xalq deputatlar kengashlarining materiallari;
- Prokuratura organlarining tahliliy materiallari;
- Ichki nazorat natijalari (ichki xavfsizlik va ichki audit bo'linmalari).

Bugungi kunda qo'mita quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatmoqda:

- qonun ijodkorligi;
- parlament nazorati;
- hukumat a'zoligiga homzodlarni ko'rib chiqish;
- targ'ibot, soha tashkilotlari bilan hamkorlik;
- xalqaro tajribani o'rganish;
- fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash;
- Qo'mita faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish.

Qo'mita ushbu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish doirasida quyidagi oliy harbiy bilim yurtlari va tadqiqot markazlari bilan hamkorlik o'rnatgan:

- O'zbekiston Respublikasi DXX akademiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti;
- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining hisobotiga ko'ra, 2021-yilning birinchi choragida qonun ijodkorligi faoliyati yo'nalishida 17 ta qonun loyihasi uchun mas'ul bo'ldi. Shu kunga qadar ulardan 7 tasi qabul qilindi, 4 tasi birinchi o'qish, 5 tasi ikkinchi o'qish hamda 1 tasi uchinchi o'qish muhokamasiga tayyorlanmoqda. Ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida qo'mita tomonidan 19 ta yig'ilish o'tkazildi.

Bundan tashqari, qo'mita mas'ul bo'lgan qonun loyihalari muhokamasi bo'yicha 25 ta ishchi guruhlar yig'ilishi tashkil etildi. Mazkur yig'ilishlarda kechgan qizg'in muhokamalar jarayonida qonun tashabbuskorlaridan qo'mitagaga kelib tushgan qonun loyihalaring 2 tasi kontseptual jihatdan qayta ishlangan, 2 tasi qariyb 25-30 foizgacha o'zgartirilgan.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, 2020 yilda Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasiga yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlar soni 706 tani tashkil etgan. Taqqoslash uchun Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi (3205 ta), Sanoat, qurilish

va savdo masalalari qo'mitasi (780 ta), Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi (674 ta), Fan, ta'lif, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi (602 ta) hamda Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi (527 ta) tomonidan ko'rib chiqilgan.

Qonunchilik palatasining g'oyat muhim nazorat faoliyatidan biri – bu qabul qilingan qonunlarning ijobi hokimiyati organlari tomonidan qanday bajarilayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlilik nazoratini o'rnatishdan iboratdir[6].

Qonunlarga qanday rivoj etilayotgani ustidan nazorat faoliyati Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan ularning ish rejalariga muvofiq o'tkaziladi. Odatda, qonun ijrosining borishi ikki asosiy jihatni: birinchidan, qonun bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ob'ektiv holatini; ikkinchidan, mazkur qonunni bajarishga vakolatli bo'lgan ijobi hokimiyati organlari tomonidan qanchalik qonun normalarinining amalga oshirilishi ta'minlanayotganligini o'z ichiga oladi. Qo'mita o'zi tomonidan o'tkazadigan nazorat-tahlil tadbirlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshiradi:

- tadbir mavzusiga oid normativ-huquqiy bazasini o'rganish;
- tegishli vazirlik va idoralardan statistik ma'lumotlarni olib, tahlil qilish;
- tadbir mavzusi bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini o'rganish;
- tadbir mavzusi bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish;
- tadbir mavzusi bo'yicha qo'mitaning mudofaa@parliament.gov.uz elektron manzili orqali fuqarolarni taklif va tavsiyalarini to'plash va o'rganish;
- qonun va qonunosti hujjatlarning ijobi etilishi holatini joylarga chiqqan holda o'rganish;
- ekspert va mutaxassislar ishtirokida muhokamalar o'tkazish;
- o'rganish natijalarini muhokamasiga bag'ishlangan qo'mita majlisini o'tkazish va Qo'mitaning tegishli qarorini qabul qilish;
- nazorat-tahlil tadbirlari natijalari to'g'risida keng jamoatchilikni OAV orqali xabardor qilish;
- Qo'mita qarorining ijrosini nazorat qilish.

Ta'kidlash lozimki, ushbu qo'mita faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligi ijobi hokimiyati faoliyatiga ham ijobji ta'sir ko'rsatadi.

### XULOSA

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish, mazkur qo'mitada faoliyat ko'rsatayotgan deputatlarning professionalizm xususiyatlarini yanada rivojlantirish hamda deputatlar tomonidan parlamentning vakillik, qonunchilik va nazorat funktsiyalarini samarali amalga oshirilishini ta'minlash o'z-o'zidan mudofaa va xavfsizlik sohasidagi qonunchilik hujjatlarining sifatli qabul qilinishiga ta'sir etib, ularning ko'p yillar davomida halqimiz manfaatlari uchun xizmat qilishini ta'minlaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, internet tarmog'ida Qonunchilik palatasining veb sayti hozirgi zamon talablariga to'liq javob bermaydi. Xususan, saytda qonunchilik, nazorat va vakillik yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha statistik ma'lumotlar mavjud emas. Shuningdek, palata tuzilmalarining nizomlari, yillik ish rejalari va hisobotlari ham mavjud emas. Sayt asosan deputatlar tomonidan tashkil etilgan tadbirlar bo'yicha yozilgan press-relizlar va ommaviy axborot vositalarida qilingan chiqishlar bilan to'ldirib tashlangan.

Qonunchilik hokimiyati organi faoliyatini yanada ochiqligini ta'minlash, deputatlar korpusi tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan ishlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish hamda deputatlar va saylovchilar o'rtasidagi qayta aloqani yanada rivojlantirish maqsadida Qonunchilik palatasi tuzilmalarining ichki normativ hujjatlari, yillik ish rejalari, hisobotlari va boshqa statistik ko'rsatgichlarni muntazam ravishda internet saytida berib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.Mirziyoyevning 20.01.2020 yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi yig'ilishidagi nutqi. //http://parliament.gov.uz/uz/events/other/29869/
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
3. <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody=&nd=102144301&rdk=&intelsearch=>
4. [https://online.zakon.kz/Document?doc\\_id=1003961#pos=159;-56](https://online.zakon.kz/Document?doc_id=1003961#pos=159;-56)
5. <https://mincom.gov.az/ru/view/pages/13/>
6. Hakimov R.R. Davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish: yurid. fanlar doktori diss.. – Toshkent, 2018. – 68 b.